

Original paper

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA UNGA DOIR AYRIM MASALALAR TAHLILI



© L.D.Yadgarova^{1✉}, G.B.Murodova^{2✉}

¹Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada raqamli texnologiyalarining mohiyati va o'ziga xosligiga doir ayrim masalalar tahlil etiladi. Shuningdek, internet, televidenie, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi, raqamli aksiologik madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini anglash va bartaraf etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi.

MAQSAD: talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallar axborotni himoyalash muammosi asosan komp'yuter tizimlari va tarmoqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar hamda zamonaviy kompyuterlar vositalaridan foydalanuvchilar e'tiborini jalb etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallar axborotni himoyalash muammosi asosan komp'yuter tizimlari va tarmoqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar hamda zamonaviy kompyuterlar vositalaridan foydalanuvchilar e'tiborini jalb etish masalasini o'rganish aniq metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu tadqiqotda pedagogik-psixologik tahlil, kuzatish, eksperiment, diagnostika va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bugun raqamli texnologiyalar kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois yurtimizda iqtisodiy-barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

XULOSA: raqamli texnologiyalar islohotlar jarayonining ochiqligini ta'minlash, davlat va jamiyat o'rtasida samarali axborot almashish mexanizmini o'rnatishda muhim vosita sanaladi. Ayni paytda hukumat, vazirlik va idoralar, shuningdek, parlament a'zolarining aholi bilan samarali muloqot o'rnatish uchun maxsus virtual qabulxonalari tashkil etilgani, avvalo, jahon amaliyotiga uyg'un holda sohada qonun hujjatlarini muttasil takomillashtirib borish, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, usul, uslub, ijtimoiy, onlayn, axborot, jamiyat, internet, madaniyat, kommunikatsiya, globallashuv, texnologiya, mediasavodxonlik, ijtimoiy taraqqiyot va boshqalar.

Iqtibos uchun: L.D.Yadgarova, G.B.Murodova. Raqamli texnologiyalarining mohiyati va unga doir ayrim masalalar tahlili. // Inter education & global study. 2025. №1 B.178–186.

АНАЛИЗ СУЩНОСТИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И НЕКОТОРЫХ СВЯЗАННЫХ С НИМИ ВОПРОСОВ

© Л.Д. Ядгарова^{1✉}, Г.Б. Муродова^{2✉}

¹Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в этой статье будут проанализированы некоторые вопросы, касающиеся природы и уникальности цифровых технологий. Также акцентируется внимание на том, что динамичное развитие средств связи и передачи информации, таких как интернет, телевидение, кино, радио, видео, мобильный телефон, слайды и фотографии с различной информацией, формирование цифровой аксиологической культуры, а также осознание и преодоление проблем обеспечения информационной безопасности подрастающего поколения – одна из актуальных проблем сегодняшнего дня.

ЦЕЛЬ: учебно-методические материалы, необходимые учащимся проблема защиты информации состоит в привлечении внимания специалистов, работающих преимущественно в области компьютерных систем и сетей, а также пользователей современных средств вычислительной техники.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: учебно-методические материалы, необходимые студентам изучение проблемы защиты информации, привлекающей внимание специалистов, работающих преимущественно в области компьютерных систем и сетей, а также пользователей современных средств вычислительной техники, требует определенных методологических подходов. В данном исследовании использованы методы педагогико-психологического анализа, наблюдения, эксперимента, диагностического и статистического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: сегодня не осталось отрасли, в которую не проникли бы цифровые технологии. Какой бы фронт мы ни выбрали в главе о доступности, прозрачности и скорости современные информационные технологии становятся важным фактором инноваций. Поэтому для обеспечения экономической стабильности, социального благополучия, дальнейшего повышения уровня жизни населения в стране уделяется особое внимание широкому внедрению информационно-коммуникационных технологий по всем направлениям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: цифровые технологии являются важным инструментом в обеспечении открытости процесса реформ, налаживании эффективного механизма

обмена информацией между государством и обществом. В настоящее время создаются специальные виртуальные приемные правительства, министерств и ведомств, а также членов парламента для налаживания эффективного диалога с населением, что, в первую очередь, способствует постоянному совершенствованию законодательства в отрасли в соответствии с мировой практикой, информированию широкой общественности о содержании новых законов и эффективному их применению на практике.

Ключевые слова: цифровое образование, метод, стиль, социальное, онлайн, информация, общество, интернет, культура, коммуникация, глобализация, технологии, медиаграмотность, социальное развитие и т. д.

Для цитирования: Ядгарова Л.Д., Муродова Г.Б. Анализ сущности цифровых технологий и некоторых связанных с ними вопросов. // Inter education & global study. 2025. №1. С. 178–186.

ANALYSIS OF THE ESSENCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND SOME RELATED ISSUES

© Lola Dj. Yadgarova¹✉, Guli B. Murodova²✉

^{1,2}Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article will analyze some issues related to the nature and uniqueness of digital technologies. Attention is also focused on the fact that the dynamic development of means of communication and information transmission, such as the Internet, television, cinema, radio, video, mobile phone, slides and photographs with various information, the formation of a digital axiological culture, as well as awareness and overcoming the problems of ensuring information security of the younger generation is one of the urgent problems of today.

AIM: educational and methodological materials necessary for students the problem of information security is to attract the attention of specialists working mainly in the field of computer systems and networks, as well as users of modern computing equipment.

MATERIALS AND METHODS: educational and methodological materials necessary for students the study of the problem of information security, which attracts the attention of specialists working mainly in the field of computer systems and networks, as well as users of modern computing equipment, requires certain methodological approaches. This study uses methods of pedagogical and psychological analysis, observation, experiment, diagnostic and statistical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: there is no industry today that has not been penetrated by digital technologies. Whichever front we choose in the chapter on accessibility, transparency, and speed, modern information technology is becoming an important driver of innovation. Therefore, in order to ensure economic stability, social well-

being, and further improve the standard of living of the population in the country, special attention is being paid to the widespread introduction of information and communication technologies in all areas.

CONCLUSION: digital technologies are an important tool in ensuring the openness of the reform process and establishing an effective mechanism for information exchange between the state and society. Currently, special virtual reception rooms of the government, ministries and departments, as well as members of parliament are being created to establish an effective dialogue with the public, which, first of all, contributes to the continuous improvement of legislation in the industry in accordance with international practice, informing the general public about the content of new laws and their effective application in practice.

Keywords: digital education, method, style, social, online, information, society, Internet, culture, communication, globalization, technology, media literacy, social development, etc.

For citation: Lola Dj. Yadgarova, Guli B. Murodova. (2025) 'ANALYSIS OF THE ESSENCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND SOME RELATED ISSUES', *Inter education & global study*, (1), pp. 178–186. (In Uzbek).

Ta'kidlash joizki, zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim sohasidagi onlayn o'qitish usullari zamonaviy raqamli vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi-pedagog va talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Endigi vaziyat talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallar axborotni himoyalash muammosi asosan komp'yuter tizimlari va tarmoqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar hamda zamonaviy kompyuterlar vositalaridan foydalanuvchilar e'tiborini jalb etmoqda. Bunday axborot vositalariga asosan, yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Shu jihatdan ushbu maqolada axborot texnologiyalarining ijtimoiy taraqqiyotdagi tutgan o'rni masalasiga e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, axborot olamida internet, internet-televidenie, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim sohasidagi onlayn o'qitish usullari zamonaviy raqamli axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi-pedagog va talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Endigi vaziyat talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallar axborotni himoyalash muammosi asosan kompyuter tizimlari va tarmoqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar hamda zamonaviy kompyuterlar vositalaridan foydalanuvchilar e'tiborini jalb etmoqda.

Bunday axborot vositalariga asosan, yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Axborot olamida internet, internet-televidenie, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda axborot olamida internet, internet-televidenie, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Bunday axborot vositalariga asosan yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Ma'lumki, aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yonatrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Internet, televidenie, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi raqamli vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, raqamli - madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini anglash va bartaraf etishni taqozo etadi.

Axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish asosida axborot madaniyati shakllanadi.

Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim deb xisoblaymiz.

Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil raqamli madaniyat ila fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlariga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, internetdan

foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega bo'lish zarurati yuzaga keldi. Avvalo, mediasavodxonlikning o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish lozim.

Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishdan iborat bo'lgan. Raqamli ta'lim - uquv jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Bugungi raqamli muhitini tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir. Qayd etganimizdek, globallashuv, global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi.

Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda. Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi: yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish; media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish; internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish; mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar.

Ma'lumki, milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga

oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunda «O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda «Shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi» belgilab berilgan.

Tezkor internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. Darhaqiqat, «Gazeta.uz» hamda «Daryo.uz» saytlari xabarlariga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 13 milliondan oshgan. O'zbekistondagi yagona ta'lim portali hisoblangan Ziyonet.uz, vsetut.uz, muloqot.uz va shu kabi jami saytlarda ro'yxatdan o'tganlar jamlanganda ham birgina ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilar miqdoriga tenglasha olmasligi achinarli holatdir. Ushbu raqamlar milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli, o'ziga tortuvchi qilib yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi. Milliy saytlarimiz oldinda yurmasada, boshqa chet el saytlaridagi kabi «o'ziga jalb qilish» doirasini kengaytirsa, yoshlarimiz milliy saytlarga birinchi bo'lib, murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar, jumladan, 120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borayotgani, o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlarini kuchaytirayotgani sir emas. Bu borada, eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'tgan davrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi bir qator qonunlar qabul qilingani buning tasdig'idir. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va keng qo'llash davlatimizning yaqin hamda uzoq muddatga mo'ljallangan muhim strategik vazifalari qatorida turganini alohida qayd etish joiz.

Bunga Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi misolida yana bir bor amin bo'lish mumkin. Unda ta'kidlanganidek, 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod oshirishda ilg'or texnologiyalar hamda axborot kommunikatsiya tizimlarini barcha sohaga yanada faol jalb etish muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, jahon amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning taraqqiyoti mamlakatning raqobatdoshligini oshirish, katta oqimdagi axborotni to'plash va umumlashtirish, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy omilga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda dunyo bo'yicha

yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 5,5 foizdan ortig'i axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar daromadboq sohalardan biri sifatida davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim tarmoqlardan biriga aylanib borayotir. Aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlashga, muhim boshqaruv jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi, qolaversa, bugun hayotning o'zi bizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish biznes yuritishni yaxshilash, iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan birga, hayot sifatini oshirishga ham xizmat qilishini ko'rsatib turibdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ядгарова Л.Д., Файзиева Н.Б. Специфика и структура педагогического процесса // Ученый XXI века, международный научный журнал №11(24), 2016.С.44-45. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=E6w8PR8AAAJ&citation_for_view=E6w8PR8AAAAJ:Y0pCki6q_DkC
2. Атаева Г.И., Ядгарова Л.Д. Оценка прикладных свойств обучающей платформы MOODLE в Бухарском государственном университете //Universum: технические науки. –2020.–№.6-1(75).–С.30-32 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=E6w8PR8AAAAJ&citation_for_view=E6w8PR8AAAAJ:UeHWp8X0CEIC
3. Ядгарова Л.Д., Эргашева С.Б. Способы использования интерактивных методов в образовательном процессе // Academy № 9(60), 2020. С.11-12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=E6w8PR8AAAJ&citation_for_view=E6w8PR8AAAAJ:ufrVoPGSRksC
4. Ядгарова Л.Д., Эргашева С.Б. Требования к тестовым заданиям в электронных учебниках // Проблемы педагогики, научно-методический журнал. №8(56).2020.С.36-39.
5. Ядгарова Л.Д., Мурадова Г.Б. Сложности перевода речевые стили литературного языка//Academy№12(51),2019.С.63-65.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Yadgarova Lola Djalolovna**, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi, [**Ядгарова Лола Джалоловна**, старший преподаватель кафедры информационных систем и цифровых технологий], [**Lola Dj. Yadgarova**, Senior Lecturer at the Department of Information Systems and Digital Technologies]; manzil: O'zbekiston, Buxoro, M.Iqbol, 11 [адрес: Узбекистан, Бухара М.Икбол, 11], [address: Uzbekistan, M.Iqbol, 11].

✉ **Murodova Guli Buranovna**, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi, [**Муродова Гули Бурановна**, старший преподаватель кафедры информационных систем и цифровых технологий], [**Guli B. Murodova**, Senior Lecturer at the Department of Information Systems and Digital Technologies]; manzil: O'zbekiston, Buxoro, M.Iqbol, 11 [адрес: Узбекистан, Бухара М.Икбол, 11], [address: Uzbekistan, M.Iqbol, 11].